

**Buxoro viloyat adliya boshqarmasi huzuridagi  
malaka komissiyasi yig'ilish  
BAYONNOMASI № 14**

**2023-yil 17-oktabr**

**Buxoro shahri**

**Raislik etuvchi:** Q.Xolov–Boshqarma boshlig'ining o'rinbosari,  
komissiya raisi

**Komissiya a'zolari:** H.Tohirov, B.Mansurov, B.Rahmonov, J.Xusainov,  
J.Ergashev, M.Aslova

**Komissiya yig'ilishida  
ishtirok etganlar:** Buxoro shahridagi xususiy amaliyot bilan  
shug'ullanuvchi notarius F.Safarova

**Yig'ilish kotibi:** J.Ashurov– komissiya kotibi

**Kun tartibi**

**Buxoro viloyat adliya boshqarmasining 2023-yil 09-oktabrdagi  
20-11-01/100/2-sonli xususiy amaliyot bilan shug'ullanish huquqini beruvchi  
litsenziyalarning amal qilish muddatini to'xtatib turish to'g'risidagi  
taqdimnomalarni ko'rib chiqish to'g'risida.**

---

*(Q.Xolov, H.Tohirov, B.Mansurov, B.Rahmonov, J.Xusainov, J.Ergashev, M.Aslova,  
F.Safarova)*

Malaka komissiyasiga raislik etuvchi Q.Xolov yig'ilishni ochib, kun tartibidagi masala Buxoro viloyat adliya boshqarmasining Buxoro shaharidagi xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius **Safarova Furuza Jamshedovna** (*litsenziya BH 0021, 22.04.2020 y*) berilgan xususiy notarial faoliyat bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyaning amal qilish muddatini to'xtatish to'g'risidagi 2023-yil 09-oktabrdagi 20-11-01/100/2-sonli taqdimnoma komissiya raisi tomonidan komissiya a'zolariga o'qib eshittirildi.

Jumladan, Notarius tomonidan 2021-yil 13-dekabrda tasdiqlanib reestrda 20210166402039-raqami bilan qayd qilingan ko'chmas mulk oldi-sotdi shartnomasi bo'yicha oldi-sotdi mulki uy bo'lsada notarius o'z shartnomasini kvartira oldi-sotdi shartnomasi deb nomlangan.

Notarius tomonidan 2021-yil 17-martda tasdiqlanib reestrda 20210166400253-raqami bilan qayd qilingan kvartira oldi-sotdi shartnomasini rasmiylashtirishda ro'yxatda turuvchilar mavjud bo'lsada notarius o'z shartnomasida ro'yxatda hech kim turmaydi deb ko'rsatgan. (ro'yxatda turuvchilardan ro'yxatdan chiqish haqidagi arizalar olingan).

Notarius tomonidan 2021-yil 18-martda tasdiqlanib reestrda 202101664000258-raqami bilan qayd qilingan kvartira oldi-sotdi shartnomasini



rasmiylashtirish uchun kerak bo'lgan sovuq suv va oqava hamda issiq suv ta'minotidan qarzdorlik yo'qligi tekshirilmagan.

Notarius tomonidan 2021-yil 22-aprelda tasdiqlanib reestrda 202101664000438-raqami bilan qayd qilingan kvartira oldi-sotdi shartnomasini rasmiylashtirish uchun ro'yxatda turgan fuqarodan ushbu kvartirani sotishga notarial tasdiqlagan rozilik olingan.

Notarius tomonidan 2022-yil 29-sentyabrda tasdiqlanib reestrda 202201664001275-raqami bilan qayd qilingan kvartira oldi-sotdi shartnomasini rasmiylashtirish uchun issiq suv ta'minotidan qarzdorlik yo'qligi to'g'risidagi ma'lumotnoma notariusning so'roviga emas to'g'ridan-to'g'ri fuqarodan qabul qilib olingan.

2021-yil 11-oktyabrdagi 202101664001742 reestr raqami bilan tasdiqlangan kvartira oldi-sotdi shartnomasida, 2021-yil 16-oktyabrdagi 202101664001776-reestr raqami bilan tasdiqlangan kvartira oldi-sotdi shartnomasida, 2021 yil 11 noyabrdagi 202101664001949 reestr raqami bilan tasdiqlangan kvartira oldi-sotdi shartnomasida, 2021-yil 27-avgustdagi 202101664001547-reestr raqami bilan tasdiqlangan kvartira oldi-sotdi shartnomasida, 2021-yil 03-dekabrdagi 202101664002009-reestr raqami bilan tasdiqlangan kvartira oldi-sotdi shartnomasida issiqlik manbai korxonasiidan kurerlik orqali ma'lumotnoma olinmagan. Bu kabi holat yana 10 ta holatda takrorlangan.

2021-yil 27-dekabrdagi 202101664002112 reestr raqami bilan tasdiqlangan kvartira oldi-sotdi shartnomasida, 2021-yil 27-dekabrdagi 202101664002113-reestr raqami bilan tasdiqlangan kvartira oldi-sotdi shartnomasida, 2022-yil 26-yanvardagi 202201664000131-reestr raqami bilan tasdiqlangan kvartira oldi-sotdi shartnomasida, 2022-yil 23-fevraldagi 202201664000262 reestr raqami bilan tasdiqlangan kvartira oldi-sotdi shartnomasida, 2022-yil 24-fevraldagi 202201664000264-reestr raqami bilan tasdiqlangan kvartira oldi-sotdi shartnomasida baholash dalolatnomalari ortiqcha olingan.

Notarius F.Safarova tomonidan 14.12.2022-yilda reestr 202201664001773-son bilan avto oldi-sotdi shartnomasini rasmiylashtirishda notarial tasdiqlangan to'lovlarni boshqa fuqaroning plastik kartasiga o'tkazish to'g'risidagi ariza ortiqcha olingan.

Notarius F.Safarova tomonidan 15.12.2022-yilda reestr 202201664001778-son bilan avto oldi-sotdi shartnomasini rasmiylashtirishda notarial tasdiqlangan to'lovlarni boshqa fuqaroning plastik kartasiga o'tkazish to'g'risidagi ariza ortiqcha olingan.

Notarius F.Safarova tomonidan 23.04.2021-yilda reestr 202101664000450-son bilan avto oldi-sotdi shartnomasini rasmiylashtirishda notarius muhri bosilmagan.

Notarius F.Safarova tomonidan 17.05.2021-yilda reestr 202101664000551-son bilan avto oldi-sotdi shartnomasini rasmiylashtirishda sotuvchining tug'ilganlik to'g'risidagi ma'lumot ortiqcha olingan va tirklik holati tekshirilmagan.

Notarius F.Safarova tomonidan 10.01.2022-yilda reestr 202201664000046-son bilan avto hadya shartnomasini rasmiylashtirishda turmush o'rtog'i arizasi notarial tasdiqlanmagan. Notarius F.Safarova tomonidan 13.01.2022-yilda reestr



202201664000082-son bilan avto oldi-sotdi shartnomasini rasmiylashtirishda turmush o'rtog'i arizasi notarial tasdiqlanmagan.

Notarius F.Safarova tomonidan 17.01.2022-yilda reestr 202201664000099-son bilan avto oldi-sotdi shartnomasini rasmiylashtirishda turmush o'rtog'i arizasi notarial tasdiqlanmagan. Notarius tomonidan 2021-yil 25-oktyabrda tasdiqlanib reestrda 202101664001837-raqami bilan qayd qilingan avtotransport vositasi ijara shartnomasini rasmiylashtirishda mulkdorning qonuniy nikohi yo'qligi holati tekshirilmagan.

Notarius F.Safarova tomonidan 11.10.2021-yilda reestr 202101664001739-son bilan avto ishonchnomasi rasmiylashtirishda asosiy ishonchnomada ko'rsatib o'tilmagan huquq ya'ni shartnomalarni bekor qilish huquqi berilmagan bo'lsada kiritilgan. Notarius F.Safarova tomonidan 22.07.2021-yilda reestr 202101664001126-son bilan avto ishonchnomasi rasmiylashtirishda asosiy ishonchnomada ko'rsatib o'tilmagan huquq ya'ni taqiqda turish-turmasligi to'g'risida notariusdan ma'lumot olish huquqi berilmagan bo'lsada kiritilgan.

Notarius F.Safarova tomonidan 05.12.2022-yilda reestr 202201664001712-son bilan avto ishonchnomasi rasmiylashtirishda asosiy ishonchnomada ko'rsatib o'tilmagan huquq ya'ni taqiqda turish-turmasligi to'g'risida notariusdan ma'lumot olish huquqi berilmagan bo'lsada kiritilgan.

Notarius F.Safarova tomonidan 23.10.2021-yilda reestr 202101664001829-son bilan avto ishonchnomasi rasmiylashtirishda ishonchnoma asosiy ishonchnomaga asosan berilgan bo'lsada, asosiy ishonchnomaga berilgan huquqlar yozilib, notarius tomonidan nusxa olinmagan.

Notarius F.Safarova tomonidan 23.10.2021-yilda reestr 202101664001830-son bilan avto ishonchnomasi rasmiylashtirishda ishonchnoma asosiy ishonchnomaga asosan berilgan bo'lsada, asosiy ishonchnomaga berilgan huquqlar yozilib, notarius tomonidan nusxa olinmagan. Bu kabi holat yana 4 ta holatda takrorlangan.

Notarius tomonidan 2020-yil 10-dekabrda tasdiqlanib reestrda 202001664001214-raqami bilan qayd qilingan garov shartnomasini rasmiylashtirish uchun garovga qo'yuvchining xotini roziligi notarial tartibda tasdiqlanmagan.

Notarius tomonidan 2022-yil 14-sentyabrda tasdiqlanib reestrda 20220166400182-raqami bilan qayd qilingan garov shartnomasini rasmiylashtirishda "Notarius" AATdan olingan garovga qo'yuvchining nikoh holati haqidagi ma'lumotnomasiga ko'ra ikkita qonuniy nikoh borligiga notarius o'z e'tiborini bermagan.

Notarius tomonidan 2022-yil 7-oktyabrda tasdiqlanib reestrda 20220166401327-raqami bilan qayd qilingan garov shartnomasini bo'yicha garov mulki maxsus texnika vositasi bo'lsa taqiq bor-yo'qligi holati boshqa turdagi mulk bo'limida tekshirilgan.

Notarius tomonidan 2021-yil 13-dekabrda tasdiqlanib reestrda 20210166402032-raqami bilan qayd qilingan ipoteka shartnomasining ipoteka predmeti kvartira bo'lsa notarius ushbu kvartirani yer uchastkasidan doimiy



foydalanish huquqi bilan birga garovga qo'yish to'g'risidagi shartnomani rasmiylashtirilgan, ammo yerga bo'lgan huquq davlat ro'yxatidan o'tkazilmagan.

Notarius tomonidan 2022-yil 27-yanvarda tasdiqlanib reestrda 202201664000157-raqami bilan qayd qilingan ipoteka shartnomasini rasmiylashtirish uchun asos bo'lgan kredit shartnoma kredit oluvchi tomonidan imzolanmagan.

Notarius tomonidan 2021-yil 15-dekabrda reestrda 202101664002057-raqami bilan qayd qilingan vasiyatnoma "Notarius" AATda mavjud bo'lgan ma'lumotga ko'ra soat 13:37da tasdiqlangan bo'lsa notarius vasiyatnomada esa tasdiqlangan vaqti 14:00 deb qayd qilingan.

Shundan so'ng, komissiya tomonidan kun tartibidagi masalaning alohida muhokamasi boshlandi.

Raislik qiluvchi, notarius F.Safarovadan taqdimnomada ko'rsatilgan holatlar bo'yicha izoh berishni so'radi.

Notarius F.Safarova o'z tushuntirishida kamchiliklarni tan olishini, sodir etilgan kamchiliklarning ayrimlari bartaraf etilganligini, kelgusida bu kabi kamchiliklarga yo'l qo'yilmasligini bayon qildi.

Yuqoridagilarga ko'ra, malaka komissiyasi a'zolari bir ovozdan notarius F.Safarova tomonidan amalga oshirilgan notarial harakatlar amaldagi qonun hujjatlari, "Notariat to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni, Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 16 martdagi 156-sonli va 2020-yil 18 noyabrdagi 726-son qarorlari hamda "Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalari huzuridagi malaka komissiyalari to'g'risida"gi nizom (ro'yxat raqami 3250, 26.06.2020 yil) talablariga talablariga rioya qilinmagan holda rasmiylashtirilgan deb hisoblandi.

Shundan so'ng, komissiya raisi muhokama natijasi bo'yicha a'zolardan taklif berishni so'radi.

Komissiya a'zosi J.Xusainov tomonidan notarius F.Safarova tomonidan notarial harakatlarni rasmiylashtirish jarayonida sohaga oid amaldagi qonunchilik talablariga vakolat doirasida rioya qilmaganligini, notarius tomonidan qoidabuzarliklar hollari va muddatlarida nazarda tutilgan qoidabuzarliklarning bir nechtasi sodir etilganligi aniqlangan taqdirda, litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turish aniqlangan qoidabuzarliklar uchun belgilangan eng ko'p muddat doirasida amalga oshirilishini inobatga olib, xususiy notarial faoliyat bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyalarining amal qilish muddatini **1 (bir) oy muddatga** to'xtatish taklifi bildirildi.

Mazkur taklif komissiyaning barcha a'zolari tomonidan to'liq ovoz berish yo'li bilan ma'qullandi.

Yuqoridagilarga ko'ra, Buxoro viloyat adliya boshqarmasi huzuridagi malaka komissiyasi



## QAROR QILADI:

1. Buxoro viloyat adliya boshqarmasining 2023-yil 09-oktabrdagi 20-11-01/100/2-sonli xususiy amaliyot bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyalarning amal qilish muddatini to'xtatib turish to'g'risidagi taqdimnoma muhokamalari yakunlangan deb topilsin.

2. Notarius F.Safarova tomonidan amaldagi qonun hujjatlari, "Xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslar faoliyatini tashkil etish tartibi to'g'risida"gi Nizom, "Notariuslar tomonidan ko'chmas mulklarni boshqa shaxsga o'tkazish haqidagi bitimlarni tasdiqlash" Ma'muriy reglamenti, "Notariuslar tomonidan avtomototransport vositalarini boshqa shaxsga o'tkazish haqidagi bitimlarni tasdiqlash" Ma'muriy reglamenti, "Notariuslar tomonidan mol-mulkni garovga (ipotekaga) qo'yish to'g'risidagi shartnomalarni tasdiqlash" Ma'muriy reglament hamda "Notariuslar tomonidan notarial harakatlarni amalga oshirish tartibi to'g'risidagi" Yo'riqnoma talablariga rioya qilinmagan holda rasmiylashtirilgan deb topilsin.

3. Buxoro shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Safarova Firuza Jamshedovnaga (*litsenziya BH 0021, 22.04.2020 y*) berilgan xususiy notarial faoliyat bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyaning amal qilishini joriy yilning **21-oktabr kundan 1 (bir) oy muddatga** to'xtatilsin.

4. Bayonnoma nusxasi bir kun ichida Buxoro viloyat adliya boshqarmasi va O'zbekiston Respublikasi Notarial palatasi Buxoro viloyat hududiy boshqarmasi hamda notarius F.Safarovaga yetkazilsin.

5. Notarius F.Safarovaga malaka komissiyasi qaroridan norozi bo'lgan taqdirda, komissiya yig'ilish bayonnomasi nusxasini olgan kundan boshlab o'n kun ichida O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Oliy malaka komissiyasiga yoki sudga shikoyat qilish huquqiga ega ekanligi tushuntirilsin.

**Komissiya raisi:**

**Q.Xolov**

**A'zolar:**

**H.Tohirov**

**B.Mansurov**

**B.Rahmonov**

**J.Xusainov**

**M.Asloнова**

**J.Ergashev**

**J.Ashurov**

**Mas'ul kotib:**